

39. Makalah dalam Sarasehan Makanan Tradisional Dalam Pandangan Budaya dan Keamanannya. Pusat Kajian Makanan Tradisional UGM Bekerjasama dengan Unit Dharma Wanita dan Panitia Dies Natalis ke-47.UGM.
40. Miele & Murdoch. (2002). *Gastronomy Tourism_ The Place of Plate*. Penelitian,Pengkajian & Pembinaan Nilai-nilai Budaya.
41. Molz, J. G. (2007). Eating difference: The cosmopolitan mobilities of culinary tourism. *Space and Culture*, 10(1), 77- 93. doi:10.1177/1206331206296383
42. Smith, S. & Costello, C. (2009). SegmentingVisitors to a Culinary Event:Motivations, Travel Behavior, and Expenditures. *Journal of HospitalityMarketing & Management*, 18: (1), 44-67..
43. Timothy, D. J. & Nyaupane, G P. (2009). *Cultural Heritage And Tourism In The Developing World:A Regional Perspective*. London: Routledge.
44. Timothy, D. J. (1999). Participatory planning: A view of tourism in Indonesia. *Annalsof Tourism Research*, 26(2), 371-391.
45. Triady, M.S. & Lazuardi. M. (2015). *Rencana Pengembangan Kuliner Nasional 2015-2019*. Jakarta: PT. Republik Solusi.
46. Undang-Undang Republik Indonesia, No.10 Tahun 2009 tentang Kepariwisataa.n.UNWTO. (2015). *Tourism Highlights 2015 Edition* Geneva. The World Economie Forum.
47. Xiaomin, C. (2017) “*City of Gastronomy*” ofUNESCO Creative Cities Newtwork:From Internasional Criteria to LocalPractice. Retrieved from <http://www.ritsume.ac.jp/acd/re/ssrc/resulp/memoir/tokusyuuugou201707/tokusyuuugou201707-08.pdf>

BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA YASHIL IQTISODIYOTNING IJTIMOIIY-IQTISODIY MOBILLIGI

**Buxoro davlat universiteti
professori i.f.d. Xidirova G.R.**

xidirova.g.r@gmail.com

Annotatsiya. Bugungi kunda barqaror turizm global miqyosda muhim yoʻnalishlardan biriga aylanib, ekologik barqarorlik, ijtimoiy-iqtisodiy farovonlik va madaniy merosni saqlash tamoyillariga asoslangan holda rivojlanmoqda. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyot konsepsiyasi asosida barqaror turizmni rivojlantirish boʻyicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy mobilligi mamlakatimiz turizm sohasiga qanday taʼsir koʻrsatishi, uning iqtisodiy samaradorligi va ekologik barqarorlikka qoʻshadigan hissasi ilmiy asoslangan holda tahlil qilingan boʻlib, tadqiqot davomida yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillari, uning turizm sektori bilan oʻzaro bogʻliqligi va barqaror turizmni rivojlantirishdagi oʻrni koʻrib chiqiladi. Xususan, yashil infratuzilma, ekologik toza texnologiyalar, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, chiqindisiz turizm modeli va ijtimoiy-iqtisodiy mobillik omillari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, ekologik turizmning investitsion jozibadorligi, ish oʻrinlari yaratish, mahalliy aholi turmush darajasini oshirish va mintaqaviy rivojlanishdagi ahamiyati yoritib beriladi.

Kalit soʻzlar: yashil iqtisodiyot, barqaror turizm, ijtimoiy-iqtisodiy mobillik, yashil infratuzilma, qayta tiklanadigan energiya, chiqindisiz turizm modeli.

Kirish

Bugungi globallashuv davrida barqaror rivojlanish konsepsiyasi dunyo iqtisodiyotining ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylangan. Xususan, yashil iqtisodiyotga oʻtish jarayoni, atrof-muhitni muhofaza qilish va resurslarni samarali boshqarish masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, turizm sohasi ham ushbu jarayondan chetda qolmasligi lozim. Chunki turizm iqtisodiyotning ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy jihatdan koʻp qirrali

sektorlaridan biri sifatida nafaqat daromad manbai, balki mintaqaviy rivojlanishga turtki beruvchi omil sifatida e'tirof etiladi.

Mamlakatimizda barqaror turizmni rivojlantirishda yashil iqtisodiyotning qo'llanilishi alohida o'rin tutadi. Yashil iqtisodiyot nafaqat tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, ijtimoiy tenglikni mustahkamlash va iqtisodiy mobillikni oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, turizm sohasida ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiiy va madaniy merosni saqlash hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali turizmning iqtisodiy salohiyatini oshirish imkoniyatlari mavjud. Mazkur maqolada mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanish strategiyasi doirasida o'ta muhim bo'lib, barqaror turizmning iqtisodiy-ijtimoiy mobilligiga ta'sir etuvchi yashil iqtisodiyot tamoyillarini tahlil qilish va ulardan samarali foydalanish yo'llarini o'rganish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Shu sababli, bu maqola turizm orqali yashil iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy mobillikka ta'sirini o'rganishning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur tahlil qilishni talab qiladi.

Asosiy qism:

Globalashuv va atrof-muhitga bo'lgan xavflarning kuchayishi yashil iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga keng joriy qilish zaruratini keltirib chiqardi. Xususan, turizm sohasi, ekologik barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash maqsadida yashil iqtisodiyotga asoslangan rivojlanish yo'nalishlarini o'zlashtirishi zarur. O'zbekiston boy tabiiy, tarixiy va madaniy merosga ega bo'lib, barqaror turizmni rivojlantirishda katta salohiyatga ega. Shu bois mamlakatimizda yashil iqtisodiyot tamoyillarini turizm sohasiga integratsiya qilish orqali ijtimoiy-iqtisodiy mobillikka erishish strategik vazifa hisoblanadi[1, 2].

Yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida iqtisodiy faoliyatni ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Bu turizm sektorida quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi[3,4]:

- Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish.
- Karbon chiqindilarni kamaytirish va atrof-muhitni muhofaza qilish.
- Energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish.
- Mahalliy aholini jalb etish orqali iqtisodiy tenglikni ta'minlash.

O'zbekistonning turizm infratuzilmasini qayta qurish va zamonaviylashtirish jarayonida yashil iqtisodiyot tamoyillarini qo'llash iqtisodiyotning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston turizm sektori iqtisodiyotning tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. So'nggi yillarda hukumat tomonidan turizmni rivojlantirish uchun keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, yashil iqtisodiyot tamoyillarini tatbiq etish sohada bir qator yutuqlarga erishishga yordam beradi. Resurslarning tejamkorligi, turizm infratuzilmasida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, ekologik xavfsizlik, ekoturizm yo'nalishlarini rivojlantirish va tabiiy hududlarni saqlash, ijtimoiy manfaatlar, mahalliy aholi uchun yangi ish o'rinlarini yaratish va daromadlarini oshirish kabi vazifalar belgilanadi[1,4].

Yashil iqtisodiyot – bu ekologik jihatdan barqaror va ijtimoiy adolatni qo'llab-quvvatlovchi iqtisodiyot modelidir. Ushbu iqtisodiyot modelida tabiiy resurslarni oqilona boshqarish, atrof-muhitni himoya qilish va barqaror iqtisodiy rivojlanish asosiy e'tiborda bo'ladi. Yashil iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy mobilligi jamiyatda barqaror hayot sharoitlarini ta'minlash va imkoniyatlarni kengaytirish bilan bog'liq.

Ijtimoiy-iqtisodiy mobillik – bu shaxslar yoki ijtimoiy guruhlarining iqtisodiy va ijtimoiy mavqelardagi o'zgarishi jarayonidir. Yashil iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy mobilligiga ta'siriga bandlikni oshirish, ijtimoiy tenglikning ta'minlanishi, barqaror iqtisodiy o'sish, ta'lim va malaka oshirish, qishloq joylarida iqtisodiy faollikni oshirish kabi jarayonlar ta'sir ko'rsatadi. Yashil texnologiyalarni joriy qilish orqali yangi sohalar va kasblar (masalan, qayta tiklanadigan energiya, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik xizmatlar) yaratiladi. Yangi kasb va ko'nikmalar talab qilinishi ijtimoiy guruhlar orasida yangi imkoniyatlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Yashil iqtisodiyot kambag'al va zaif guruhlar uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi, chunki u asosan

mahalliy resurslar, kichik korxonalar va ekologik turmush tarziga asoslanadi. Mahalliy va qishloq aholisining iqtisodiy faolligini oshirish orqali ularning ijtimoiy mavqei yuksaladi. Yashil iqtisodiyot tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni rag'batlantiradi, bu esa uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka olib keladi. Kichik va o'rta biznes rivojlanishini qo'llab-quvvatlab, ijtimoiy tabaqalanishni kamaytiradi.[12,13]

Yashil iqtisodiyot rivojlanishi ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi, ayniqsa yashil kasblar uchun mutaxassislarni tayyorlashda. Texnik va kasbiy o'quv dasturlarining kengayishi ijtimoiy mobillikni oshiradi. Yashil iqtisodiyot qishloq joylarida ekologik dehqonchilik, organik qishloq xo'jaligi va qayta tiklanadigan energiyaga asoslangan loyihalarni rivojlantiradi, bu esa qishloq aholisining iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytiradi.

1-jadval.

Yashil iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlari²⁵⁷

Xususiyatlar	Tavsifi
Bandlikni oshirish	Yangi sohalar va ish o'rinlarini yaratish.
Ijtimoiy tenglikning ta'minlanishi	Zaif guruhlar uchun imkoniyatlar yaratish.
Barqaror iqtisodiy o'sish	Resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiy barqarorlik.
Ta'lim va malaka oshirish	Yashil kasblar uchun mutaxassislarni tayyorlash.
Qishloq joylarida iqtisodiy faollikni oshirish	Ekologik qishloq xo'jaligi va yangi loyihalarni rivojlantirish.
Ekologik barqarorlik	Resurslarni tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish.
Innovatsion texnologiyalarni qo'llash	Energiya tejamkor va ekologik toza texnologiyalardan foydalanish.
Mahalliy resurslardan foydalanish	Tabiiy va inson resurslarini mahalliy darajada qo'llash.
Chiqindilarni qayta ishlash	Chiqindilarni qayta ishlash va samarali boshqarish.

Yuqoridagi jadvaldan shuni xulosa qilish mumkinki, yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanishning muhim omillaridan biri bo'lib, u tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy tenglikni ta'minlashga qaratilgan. Ushbu iqtisodiy model bandlikni oshirish, innovatsion texnologiyalarni qo'llash va chiqindilarni qayta ishlash kabi tamoyillar asosida shakllanadi. Yashil iqtisodiyot qishloq xo'jaligida ekologik yondashuvlarni keng joriy etish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy barqarorlikni oshirish orqali jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shadi. Shu sababli, yashil iqtisodiyot kelajak avlodlar uchun barqaror yashash muhitini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekologik barqarorlik orqali tabiiy resurslarni tejash, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishiga moslashish asosida rivojlanadi. Ijtimoiy adolat bilan yashil iqtisodiyot ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, barcha fuqarolarga teng imkoniyatlarni taqdim etadi. Innovatsion texnologiyalarni qo'llash jarayonida esa energiya tejamkor texnologiyalar, qayta tiklanadigan energiya manbalari va ekologik toza ishlab chiqarish usullari keng joriy etiladi. Mamlakatda mahalliy resurslardan foydalanish bu mahalliy tabiiy va inson resurslaridan foydalanish orqali iqtisodiy faoliyatni barqaror rivojlantirishga hissa qo'shadi. Chiqindilarni qayta ishlash va resurslarni tejash orqali esa chiqindilarni qayta ishlash va resurslardan samarali foydalanish yashil iqtisodiyotning muhim tamoyillaridan biridir.

Yashil iqtisodiyot tamoyillarini turizm sohasiga tatbiq qilish borasida dunyo mamlakatlari tajribasi O'zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega. Ilmiy tadqiqot jarayonida bir nechta muvaffaqiyatli xorijiy amaliyotlarni tahlilini o'rganib chiqdik. Kosta-Rika dunyodagi eng barqaror turizm rivojlanayotgan davlatlardan biri hisoblanadi. Ularning strategiyasi ekoturizmga asoslangan bo'lib, turizm sohasi yalpi ichki mahsulotning sezilarli qismini tashkil etadi.

²⁵⁷ Muallif ishlanmasi

Mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va mahalliy aholini turizmga faol jalb etish orqali iqtisodiy va ekologik muvozanat saqlanmoqda. Shveysariyada yashil iqtisodiyot tamoyillari tog'li hududlardagi barqaror turizmni rivojlantirishga asoslangan. Ularning strategiyasi energiya tejamkor mehmonxonalar, ekologik transport tarmoqlari va tabiiy bog'larni asrab-avaylashni o'z ichiga oladi.


2-jadval

Yashil iqtisodiyot tamoyillarini turizm sohasiga tatbiq qilish borasida dunyo mamlakatlari tajribasining O'zbekiston uchun afzalliklari²⁵⁸

Mamlakat yoki hudud	Tajribasi	O'zbekiston uchun afzalliklari
Kosta-Rika	Ekoturizmni rivojlantirish orqali biologik xilma-xillikni saqlash va ish o'rinlari yaratish.	Tabiiy resurslarni saqlash va xorijiy turistlarni jalb qilish.
Yangi Zelandiya	Barqaror turizmga ekologik me'yorlarga rioya qilish va qayta tiklanadigan energiyadan foydalanish.	Mahalliy energiya manbalaridan foydalanish va yangi ish o'rinlarini yaratish.
Norvegiya	Tabiiy joylarni saqlash uchun turizm kvotalari va uglerod izini kamaytirish.	Tabiiy manzillarni asrab-avaylash orqali barqaror turizmni rivojlantirish.
O'zbekiston	Ekoturizm orqali madaniy va tabiiy merosni targ'ib qilish hamda qayta tiklanadigan energiyadan foydalanish.	Mahalliy iqtisodiyot va turizmni rivojlantirishda barqarorlikni ta'minlash.

Shveysariya tajribasi O'zbekistondagi tog'li hududlarda barqaror turizmni rivojlantirish uchun o'rnak bo'lishi mumkin[12,13].

Butan o'zining milliy farovonlik va barqaror rivojlanish tamoyillarini uyg'unlashtirgan davlat sifatida tanilgan. Mamlakatda turizm faoliyati cheklangan miqdorda va yuqori sifatli xizmatlarga asoslanadi, bu esa tabiat va madaniy merosni asrab-avaylashga yordam beradi. Ushbu yondashuv, xususan, O'zbekistonning madaniy meros obidalari atrofida turizmni tashkil qilishda o'rganilishi mumkin



1-rasm. Turizm va yashil iqtisodiyotni bo'g'liqligi²⁵⁹

²⁵⁸ Muallif ishlanmasi

²⁵⁹ Muallif ishlanmasi

2-jadval ma'lumotlaridan shuni xulosa qilish mumkinki, yashil iqtisodiyot tamoyillarini turizm sohasiga tatbiq etish barqaror rivojlanish va ekologik muhitni muhofaza qilishning muhim strategiyasidir. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, ekoturizm rivojlanishi orqali tabiiy resurslarni asrab-avaylash, mahalliy iqtisodiyotni mustahkamlash va yangi ish o'rinlari yaratish mumkin. Kosta-Rika, Yangi Zelandiya va Norvegiya kabi davlatlarning muvaffaqiyatli tajribalari, tabiiy joylarni muhofaza qilish, barqaror turizm infratuzilmasini yaratish va chiqindilarni qayta ishlash kabi tamoyillarni o'z ichiga oladi. O'zbekiston uchun ushbu tajribalar juda foydali bo'lib, mamlakatda ekoturizmni rivojlantirish, mahalliy energiya va resurslardan samarali foydalanish, tabiiy landshaftlarni saqlab qolish hamda barqaror turizm modelini shakllantirish imkoniyatini yaratadi. Shunday qilib, yashil iqtisodiyot tamoyillarini turizmda keng joriy etish ekologik barqarorlik va iqtisodiy farovonlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Yuqoridagi rasm turizm va yashil iqtisodiyot o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. Unda ekoturizm resurslardan samarali foydalanish va ekologik muvozanatni ta'minlash orqali yashil iqtisodiyot tamoyillarini qo'llab-quvvatlashi tasvirlangan. Shu bilan birga, yashil iqtisodiyot barqaror bandlik, mahalliy iqtisodiy rivojlanish va tabiiy resurslarni asrab-avaylash orqali turizmning barqarorligini ta'minlaydi.

Xulosa

Yashil iqtisodiyot tamoyillarini turizm sektoriga joriy etish mamlakatimizning barqaror rivojlanishi va xalqaro maydonda raqobatbardoshligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Xorijiy tajribani mahalliy sharoitlarga moslashtirish, tabiiy va madaniy merosni saqlash, shuningdek, mahalliy aholi uchun iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish orqali O'zbekiston barqaror turizmning ilg'or modellari qatoriga kirishi mumkin. Yashil iqtisodiyot mamlakatimiz turizm sektorini rivojlantirishda muhim rol o'ynab, ijtimoiy-iqtisodiy mobillikka xizmat qiladi. Yashil iqtisodiyot ijtimoiy-iqtisodiy mobillikni oshirish orqali jamiyatda iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta'minlaydi. Uning asosiy xususiyatlari resurslarni tejash, barqaror rivojlanish, innovatsion texnologiyalarni qo'llash va ijtimoiy adolatni ta'minlash bilan bog'liq. Shu tariqa, yashil iqtisodiyot orqali turli ijtimoiy guruhlar iqtisodiy imkoniyatlarni oshiradi va ekologik barqarorlikni ta'minlashga hissa qo'shadi.

O'zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish bo'yicha bir qator takliflar kiritdik.

1. Ekoturizm zonalarini tashkil etish orqali Buxoro, Samarqand va Xiva kabi shaharlarda ekologik barqaror turizm markazlarini yaratish kerak.
2. Texnologiyalarni joriy etish yordamida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanadigan mehmonxonalar va dam olish maskanlarini qurish lozim.
3. Mamlakatimizning turizm loyihalariga mahalliy aholini faol jalb etish orqali daromadni oshirish va iqtisodiy tenglikni ta'minlash kerak.
4. Ekologik transportni rivojlantirish jarayonida elektr transport tizimlarini joriy etish orqali karbon chiqindilarni kamaytirish lozim bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. World Bank (2022). Uzbekistan Country Economic Memorandum: A New Economy for a New Uzbekistan. Washington, D.C.: World Bank.
2. UNWTO (United Nations World Tourism Organization) (2023). Tourism Growth Trends and Economic Impact Report. Madrid: UNWTO.
3. OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development) (2021). Enhancing the Competitiveness of Uzbekistan's Economy. Paris: OECD.
4. Asian Development Bank (ADB) (2022). Uzbekistan's Economic Outlook: Industrial and Service Sector Growth Analysis. Manila: ADB.
5. Xodjayev, B. X., Axmedov, A., & Soliyeva, Sh. (2023). Green Economy and Sustainable Tourism Development in Uzbekistan. *Journal of Environmental Economics and Policy*, 12(3), 245-260.
6. Raxmanov, L. (2025). Scientific Analysis of the Interpretation of the Shadow Economy and Its Reduction in Scientific Research. *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*, 3(1).

7. Bakirov, S. (2025). Analysis of the Practice of Financing Green Projects in Uzbekistan. *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*, 3(1).
8. Jurayev, N. (2025). Analysis of Export Activities of Family Enterprises in the Economy of the Republic. *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*, 3(1).
9. Toshboyev, Sh. (2025). Mechanisms of Effective Management of Credit Lines by Commercial Banks. *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*, 3(1).
10. Nazarova, L. (2025). The Strategic Role of Green Chemistry in Innovative Activities: Global and Local Approaches. *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*, 3(1).
11. Urunbayev, S. (2025). The Importance of Natural Capital in Ensuring Sustainable Economic Growth. *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*, 3(1).
12. Qarshiyev, O. (2025). Business Model of Insurance Companies. *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*, 3(1).
13. Nazarova, L. (2025). The Strategic Role of Green Chemistry in Innovative Activities: Global and Local Approaches. *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*, 3(1).